

jarayonini interaktiv qiladi va ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Adams R. Artificial Intelligence and Language Learning: Opportunities and Challenges. – London: Routledge, 2023. – 210 p.
2. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching in the Digital Age. – New York: Pearson Education, 2021. – 325 p.
3. Zafar, D., & Sardor, O. (2022). DIFFICULTIES OF NON-PHILOLOGICAL STUDENTS IN LEARNING VOCABULARY AND USING RELEVANT TEXTS IN TEACHING ENGLISH. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11(02), 163-165.
4. Ahmadjonovna, D. G. (2024). The importance and role of lexical competence in teaching foreign languages to students. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(5), 16-23.
5. Chapelle C. A. Computer-Assisted Language Learning and Artificial Intelligence. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022. – 280 p.
6. Dörnyei Z. Innovations in Language Teaching Methodology. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 298 p.
7. Godwin-Jones R. Artificial Intelligence and Language Learning Applications // Language Learning & Technology. – 2021. – Vol. 25, №2. – P. 4–12.

LINGVODIDAKTIK NUQTAI NAZARDAN KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING USTUNLIKLARI

Erkinova Madina Komil qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti magistranti
Tel: +998916424144 E-mail: erkinovam344@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda lingvodidaktikaning nazariy-metodologik asoslari hamda kommunikativ yondashuvning zamonaviy chet tilini o‘qitishdagi o‘rni atloflicha tahlil qilinadi. Grammatik kompetensiya va nutqiy kompetensiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik lingvodidaktik yondashuv doirasida muhim metodik masalalardan biri sifatida e’tirof etilib, til o‘qitish jarayonida ushbu kompetensiyalarning integrativ xususiyati samarali nutqiy faoliyatni shakllantirishda muhim omil sanaladi. Shu jihatdan tadqiqotda kommunikativ yondashuvning an’anaviy metodlarga nisbatan ustun jihatlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: lingvodidaktika, kommunikativ yondashuv, grammatik kompetensiya, nutqiy kompetensiya, til o‘qitish metodikasi, nutqiy faoliyat.

Abstract: This study provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations of linguadidactics and the role of the communicative approach in modern foreign language teaching. The relationship between grammatical competence and speech competence is recognized as one of the important methodological issues within the linguadidactics approach, and the integrative nature of these competencies in the process of language teaching is considered an important factor in the formation of effective speech activity. In this regard, the study highlights the advantages of the communicative approach over traditional methods on the basis of a comparative analysis.

Key words: linguadidactics, communicative approach, grammatical competence, speech competence, language teaching methodology, speech activity.

Аннотация: В данном исследовании всесторонне анализируются теоретико-методологические основы лингводидактики, а также роль коммуникативного подхода в современном обучении иностранным языкам. Взаимосвязь между грамматической компетенцией и речевой компетенцией рассматривается в рамках лингводидактического подхода как одна из важных методических проблем. Отмечается, что интегративный характер данных компетенций в процессе обучения языку является важным фактором формирования эффективной речевой деятельности. В связи с этим в исследовании на основе сравнительного анализа освещаются преимущества коммуникативного подхода по сравнению с традиционными методами обучения.

Ключевые слова: лингводидактика, коммуникативный подход, грамматическая компетенция, речевая компетенция, методика преподавания языка, речевая деятельность.

Lingvodidaktika tilshunoslik va pedagogika fanlari integratsiyasi natijasida shakllangan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u tilni o‘qitishning nazariy asoslarini ishlab chiqadi. Lingvodidaktikaning asosiy vazifasi — til tizimini o‘quv jarayoniga moslashtirish, til birliklarini o‘zlashtirish mexanizmini aniqlash hamda samarali metodlarni ishlab chiqishdan iborat. Til kompetensiyasi tushunchasi ilk bor Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u lingvistik kompetensiyani til tizimini bilish sifatida talqin qilgan. Olim kompetensiya va nutqiy faoliyat o‘rtasidagi farqni ajratib ko‘rsatib, til bilishning nazariy modeli nutqiy faoliyatdan farqlanishini asoslab bergan [1]. Biroq tilni real vaziyatda

qo‘llay olish masalasi keyinchalik Dell Hymes tomonidan kengaytirilib, kommunikativ kompetensiya tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilgan. U tilni faqat grammatik qoidalar majmui sifatida emas, balki ijtimoiy vaziyatga mos ravishda qo‘llay olish qobiliyati bilan bog‘liq hodisa sifatida izohlaydi [2]. Shuningdek, Michael Halliday tilni ijtimoiy-funksional tizim sifatida talqin qilib, tilning asosiy vazifasi ma‘no yaratish va ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirishdan iborat ekanligini ta‘kidlagan [3]. Lingvodidaktik nuqtai nazardan aynan shu yondashuv zamonaviy metodologiyaning nazariy poydevorini tashkil etadi.

Lingvodidaktik nuqtai nazardan kommunikativ yondashuv bir qator ustunliklarga ega bo‘lib, eng asosiysi tilning funksional o‘rgatilishidir. Kommunikativ yondashuvning ushbu jihatida J. Richards va T. Rodgers tomonidan batafsil ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning ta‘kidlashicha, kommunikativ yondashuv tilni strukturaviy birliklar majmui sifatida emas, balki ma‘no uzatish va ijtimoiy o‘zaro ta‘sir vositasi sifatida talqin qiladi. Mualliflar til o‘qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni asosiy maqsad sifatida belgilab, o‘quvchilarning real nutqiy vaziyatlarda til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatini rivojlantirish zarurligini qayd etadilar [4]. Shuningdek, dars jarayonida o‘quvchining markazlilik - lingvodidaktikaning eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Kommunikativ yondashuv o‘quvchini faol subyekt sifatida ko‘radi. O‘qituvchi esa jarayonni tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Bundan tashqari, milliy metodika doirasida ham kommunikativlik tamoyilining ustuvorligi J. Jalolov tomonidan asoslab berilgan. Olim chet tilini o‘qitishda nutqiy faoliyat turlarini integrativ rivojlantirish, til birliklarini kontekstual qo‘llash hamda o‘quvchini faol kommunikativ subyekt sifatida shakllantirish zarurligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, grammatik material nutqiy vazifani bajaruvchi vosita sifatida o‘zlashtirilgandagina samarali natija beradi [5].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ yondashuv lingvodidaktik nuqtai nazardan tilning funksional tabiatiga mos keladi hamda grammatik bilimni nutqiy kompetensiya bilan integratsiyalash imkonini beradi. Ushbu yondashuv o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantiradi va tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiradi. Shunday qilib, zamonaviy chet tilini o‘qitish jarayonida kommunikativ yondashuv metodologik jihatdan ustun va samarali model sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965.

2. Hymes D. On Communicative Competence. – Philadelphia, 1972.
3. Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic. – London: Edward Arnold, 1978.
4. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
5. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012.

RAQAMLI PEDAGOGIKA ASOSIDA XORIJIY TIL DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Usmonova Shahnoza Jaxongir qizi

Namangan davlat pedagogika institute talabasi

Email: usmanovash005@gmail.com

Ilmiy rahbar: p.f.f.d (PhD) Z.Z. Dadabayev

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli pedagogika asosida xorijiy til darslarini tashkil etish metodikasi, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi yoritiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar hamda interaktiv vositalardan foydalanish o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Maqolada xorijiy til darslarini raqamli pedagogika asosida tashkil etishning metodik yondashuvlari, innovatsion usullari hamda ularning ta’lim sifatini oshirishdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: raqamli pedagogika, xorijiy til o‘qitish, ta’lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, onlayn ta’lim, raqamli platformalar.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика организации уроков иностранного языка на основе цифровой педагогики, а также её значение и эффективность в образовательном процессе. Использование современных цифровых технологий, онлайн-платформ и интерактивных средств обучения способствует повышению эффективности изучения иностранных языков. В статье анализируются методические подходы к организации уроков иностранного языка на основе цифровой педагогики, а также их роль в повышении качества образования.

Ключевые слова: цифровая педагогика, обучение иностранным языкам, образовательные технологии, интерактивные методы, онлайн-обучение, цифровые платформы.

Annotation: This article discusses the methodology of organizing foreign language lessons based on digital pedagogy and highlights its importance and effectiveness in the educational process. The use of modern digital technologies, online platforms, and interactive tools